Ortopedik stomatologiya mutaxassisligi bo'yicha shakllantirilgan test savollari ro'yxati (o'rta tibbiyot xodimlari uchun)

1. Metalning fizik-mexanik xossalari:
- zichligi
- Oquvchanlik
- eruvchanlik
- korroziyaga qarshilik

2. Ilmoqlar joylashadigan tayanch tishlarni bog'lovchi chiziq:
- tayanch chizig'i
- sagittal chiziq
- ilmoq chizig'i
- oraliq chiziq

3. Tayanch sifatida bitta tish bo'lganda protezni mahkamlanishi:
- chiziqli
- yuzali
- nuqtali
- diogonal

4. Tayanch sifatida ikkita tishdan foydalanilganda protezni mahkamlanishi:
- diogonal
- chiziqli
- yuzali
- nuqtali

5. Tayanch sifatida 3 va undan ortiq tishdan foydalanilganda protezni mahkamlanishi:
- nuqtali
- chiziqli
- yuzali
- diogonal

6. Funktsiyasiga ko'ra ilmoqlar:
- prujinalovchi, qattiq
- egma, quyma
- tayanch, ushlab turuvchi, tayanib-ushlab turuvchi
- aylana, yarim aylana, lentasimon

7. Tayyorlanish uslubiga ko'ra ilmoqlar:
- bir, ikki yelkali, ko'p zvenoli
- tayanch, ushlab turuvchi, tayanib-ushlab turuvchi
- aylana, yarim aylana, lentasimon
- egma, quyma, quyib egilgan

8. Tishlarni qamrab olishiga koʻra ilmoqlar:
- egma, quyma, quyib egilgan
- tayanch, ushlab turuvchi, tayanib-ushlab turuvchi
- aylana, yarim aylana, lentasimon
- bir, ikki yelkali, koʻp zvenoli

9. Koʻndalang kesimi formasiga koʻra ilmoqlar:
- tayanch, ushlab turuvchi, tayanib-ushlab turuvchi
- bir, ikki yelkali, koʻp zvenoli
- aylana, yarim aylana, lentasimon
- egma, quyma, quyib egilgan

10. Protez bazisi bilan bogʻlanishiga koʻra ilmoqlar:
- bir, ikki yelkali, koʻp zvenoli
- tayanch, ushlab turuvchi, tayanib-ushlab turuvchi
- egma, quyma, quyib egilgan
- prujinali, qattiq

11. Protezning tabiiy tishlar sohasida alveolyar oʻsiqni qamrab turuvchi ilmoq:
- bir yelkali ilmoq
- ikki yelkali ilmoq
- koʻp zvenoli ilmoq
- dento-alveolyar ilmoq

12. Qaysi protezlarda magnitli fiksatsiyalovchi elementlardan foydalangan ma'qulroq:
- immediat protezlarda
- qisman olib qoʻyiladigan protezlarda
- toʻliq olib qoʻyiladiagn protezlarda
- vaqtinchalik protezlarda

13. Modellarni kyuvetaga gipslash usulari:
- bevosita, bilvosita
- boshlangʻich. yakunlovchi
- birlamchi, ikkilamchi
- toʻgʻri, teskari, aralash

14. Neya firmasi sistemasida necha turdagi ilmoqlar farqlanadi:
- 4 tur
- 3 tur
- 6 tur
- 5 tur

15. Protezning tishlar bilan birlamchi kontaktidan boshlab protez o‘rni to‘qimalarigacha bo‘lgan harakati:
- sagittal kesuvchi yo‘l
- sagittal bo‘g‘im yo‘li
- ilmoq harakati
- protezni kiritish yo‘li

16. Yuqori jag‘ yoyli protezining yoyi joylashadi:
- «A» chiziq bo‘yicha
- tanglayning oldingi 1/3 qismida
- «A» chiziq orqasida
- qattiq tanglayning orqa 1/3qismida, «A»chiziqqa 10-12mm yetmagan holda

17. Pastki jag‘da yoyli protez yoyi joylashadi:
- tishlar ekvatorigacha boradi
- tishlar bo‘yni oldida
- og‘iz tubida
- tishlar bo‘ynidan 1-1,5mm pastda

18. Qisman olib qo‘yiladigan protezni o‘tqazishda xalaqit beradigan joylar nima yordamida aniqlanadi:
- kimeviy qalam yordamida
- qolip oluvchi xom ashyo yordamida
- vizualno
- qora qog‘oz yordamida

19. Frontal tishlarni taxtakach yordamida turg‘unlashtirish nomlanadi:
- ko‘ndalang
- sagittal
- old
- aylana

20. Kichik va katta oziq tishlarni taxtakach yordamida turg‘unlashtirish:
- old-yon
- old
- ko‘ndalang
- sagital

21. Frontal va bir tomonlama kichik va katta oziq tishlarni taxtakach yordamida turg‘unlashtirish:
- old
- ko‘ndalang
- aylana
- old-yon

22. Alveolyar qirg‘oq bo‘ylab o‘tkazilgan yoy:
- tish yoyi
- bazal
- obzor
- alveolyar

23. Yuqori jag‘da tish yoyi:
- alveolyar yoydan tor
- bazal yoydan tor
- alveolyar yoy bilan teng
- alveolyar yoydan keng

24. Pastki jag‘da tish yoyi:
- bazal yoydan keng
- alveolyar yoy bilan teng
- alveolyar yoydan tor
- alveolyar yoydan keng

25. Tishsiz yuqori jag‘ning 3 tipini farqlovchi tasnifni kim taklif qilgan:
- Keller
- Oksman
- Shreder
- Kurlyandskiy

26. Tishsiz pastki jag‘ning 4 tipini farqlovchi tasnifni taklif qilgan:
- Oksman
- Shreder
- Suple
- Keller

27. Protez o‘rni shilliq qavatining tavsif - tasnifini taklif qilgan:
- Oksman
- Shreder
- Kurlyanskiy
- Suple

28. Qaysi olim yuz tiplari proportsiyalarining yuqori va pastki qismga bo‘lgan:
- Bauer
- Shvarts
- Izar
- Shtrats

29. Pastki jag‘ harakatining yo‘nalishining belgilang:
- sagittal
- transverzal

- diagonal, vertikal
- hamma javob to‘g‘ri

30. Ortopedik stomatologiyada parallelometriya usuli nima uchun qo‘llaniladi:
- jag‘da tishlarni paralel joylashganligi aniqlash uchun
- har bir tish koronkasini ekvatorini aniqlash uchun
- tayanch tishlardagi klammer yelkasini o‘rnini bilish uchun, tayanch tishlarning devorlari paraleligini aniqlash uchun
- hamma javoblar to‘g‘ri

31. Yuqori jag‘ tish qatorini shakli qanday:
- parabola
- giperbola
- aylana
- ellipsoid

32. Paralelometriyani kim bajaradi:
- shifokor assistenti
- tish texnigi
- shifokor
- tish texnik yordamchisi

33. Pastki jag‘ tish qatorini shakli qanday:
- ellipsoid
- giperbola
- aylana
- parabolla

34. Betelman tasnifi bo‘yicha defektlarning nechta sinfi tafovut qilinadi:
- 3ta
- 4ta
- 5ta
- 2ta

35. Diagnostik modellarda tish qatorining okklyuzion qiyshiqligi qanday aniqlanadi:
- zond yordamida
- ko‘z yordamida
- hamma javoblar to‘g‘ri
- diagnostik modellarni oyna plastinkaga qo‘yish bilan

36. Kichik nuqson deb qanday nuqsonlarga aytiladi
- 4-6tagacha tishlar yo‘qligida
- 6 tadan ko‘p tishlar yo‘qligida
- 3 tadan ko‘p bo‘lmagan tishlar yo‘qligida

- 8 – 13 ta tishlar yo‘qligida

37. Tabassum chizig‘i qayerdan o‘tadi.
- burun asosidan quloq solindog‘igacha o‘tadigan chiziq
- yoshga qarab o‘zgaradi
- hammada individual
- o‘rta chiziq, qoziq tishlar chiziqlari va yuqorigi old tishlarning bo‘ynidan o‘tadigan chiziq

38. Normada tinch holatda chaynov mushaklarining tonusi qanchaga teng:
- 30 gr
- 40 gr
- 60 gr
- 50 gr

39. Necha yoshda tanglay choki batamom suyaklanadi:
- 35-45 yoshda
- 10-11 yoshda
- 4-6 yoshda
- 20-15 yoshda

40. Bazal yoy deb nimaga aytiladi:
- tish yuzasidan o‘tgan chiziq
- okklyuzion chiziq
- tishni butun o‘qi bo‘yicha o‘tgan chiziq
- tish ildizi cho‘qqisidan o‘tgan chiziq

41. Yuqori jag‘dan tishlar toji qaysi tomonga egilgan:
- lingval tomoniga
- yonga
- vestibulo-lingval
- vestibulyar tomoniga

42. Pastki jag‘da tish ildizi qaysi tomonga egilgan:
- ichkariga
- yonga
- hamma javob to‘g‘ri
- tashqariga

43. Pastki jag‘da tish yoyi alveolyar yoyiga nisbatan:
- keng
- uzun
- kalta
- tor

44. Pastki jag‘da tish yoyi bazal yoyiga nisbatan qanday:
- keng
- kalta
- uzun
- tor

45. Tish qatorlari okklyuzion yuzasi bu:
- bitta tishning okklyuzion yuzasining yig‘indisi
- bir nechta tishlarning bazal yoyi
- chaynov do‘mboqlar yig‘indisi
- barch tishlarning okklyuzion yuzasining yig‘indisi

46. Yuqori jag‘da tish yoyi bazal yoyiga nisbatan qanday:
- tor
- uzun
- kalta
- keng

47. Pastki jag‘da alveolyar yoy bazal yoyga nisbatan qanday:
- keng
- uzun
- kalta
- tor

48. To‘g‘ri prikusda yon tishlar jipslashishi ortognatik prikusdan farq qilmaydi lekin ularning:
- ildizlari kattaroq bo‘ladi
- tish formasi kichikroq bo‘ladi
- kontakt saqlanmagan
- do‘mboqlari yedirilgan bo‘ladi

49. Progeniyada pastki jag‘ tish yoyi yuqoridan:
- kichik
- teng
- farq qilmaydi
- katta

50. Chuqur prikus bilan chuqur bekilishning farqi:
- tishlarda do‘mboq-do‘mboq kontakti saqlanmaydi
- tishlarda kesuv-do‘mboq kontakti saqlanmaydi
- tishlarda kesuv-do‘mboq kontakti saqlangan
- tishlarda do‘mboq-do‘mboq kontakt saqlangan

51. Chuqur qoplanuv qaysi prikus holatiga kiradi:
- prikus hisoblanmaydi

- u ortognatik prikus anotomik formasiga kiradi
- Fiziologik, u ortognatik prikus anotomik formasiga kiradi
- patologik

52. Progeniyada pastki jag‘ qaysi tomonga siljigan:
- distal
- yon tomonga
- mezial
- tepaga

53. Pastki duga qalinligi (mm da):
- 0,5
- 1,0
- 2,0
- 5,0

54. Funktsional jihatdan qistirmalar bo‘linadi:
- fiksatsiyalovchi, ushlab turuvchi
- yuklantiruvchi, ushlab turuvchi
- tiklovchi, tayanch, tarqatuvchi
- ushlab turuvchi, tarqatuvchi

55. Qistirmaning chaynov paytida siljishini oldini olish uchun:
- kirish qismi tubidan tor bo‘lishi kerak
- kovak devori tubiga 2/1 nisbatda bo‘lishi kerak
- devorlar parallel va kovak yetarli chuqurlika ega bo‘lishi kerak
- kovakka kirish qismi bilan tubi bir xil kenglikka ega bo‘lishi kerak

56. Qistirma uchun to‘g‘ri shakllantirilgan kovak:
- kirish qismi tubidan tor bo‘ladi
- kirish qismi va tubi bir xil kenglikda bo‘ladi
- kirish qismi tubidan keng bo‘ladi
- kirish qismi tubidan 2 barobar keng bo‘ladi

57. Qistirmani kiritishga xalaqit beradigan joylarni aniqlashda ishlatilinadi:
- gips
- repin
- qora qog‘oz
- talk

58. Qistirmani og‘izda okklyuzion munosabatlarini tekshirish olib boriladi:
- faqat markaziy okklyuziya holatida
- faqat old okklyuziya holatida
- markaziy, old va yon okklyuziya holatlarida
- faqat yon okklyuziya holatida

59. Qanaqa qistirma yasashda falts qilinmaydi:
- kubsimon
- rangli metall
- chinni, plastmassa
- titan

60. Ko‘proq tabiiy va turg‘un ranga ega qoplamalar:
- titan
- plastmassa
- chini
- kumush-palladiy

61. Chinni qoplamaning optimal qalinligi:
- 1,0-1,2mm
- 2,5mm
- 1,2-1,5mm
- 0,8-1,0mm

62. Chinni qoplamaning rangi aniqlanadi:
- tish quritilgan holda
- soyasiz chiroq yorug‘ligida
- tabiiy yorug‘likda
- sun‘iy yorug‘likda

63. Qaysi qoplamalarni tayyorlashda quyishdan foydalaniladi:
- ezib bo‘lishlanadigan
- metallakril, chinni, to‘la quyma
- to‘la quyma, metallokeramik, metalloplastmassa
- quyma, shtampovkalangan

64. Tayyorlash uslubiga ko‘ra metall qoplamalar bo‘ladi:
- to‘liq, ekvator
- tiklovchi, tayanch
- shtampovkalangan, quyma
- metall, nometall

65. Metall shtamp tayyorlanadi:
- kobaltdan
- titandan
- xromdan
- yengil eruvchan metalldan

66. Yengil eruvchan metall tarkibiga kiradi:
- qalay, oltin

- palladiy, kumush, qalay
- qalay, vismut, qo‘rg‘oshin
- qalay, kumush

67. Shtampovkalangan qoplama tayyorlashda metall shtamplar bo‘ladi:
- 4
- 3
- 2
- 1

68. Boshlang‘ich shtampovka qilinadi:
- Samson apparatida
- Parker apparatida
- press-forma apparatida
- sandoncha, qo‘rg‘oshin asos, metall shtampda

69. Yakunlovchi shtampovka turlari:
- bevosita, bilvosita
- tugri, teskari
- birlamchi, ikkilamchi
- tashqi, ichki, aralash

70. Ikki qavatli (ichki va tashqi) qoplamalar sistemasi nomlanadi:
- yarim qoplama
- ekvator
- qoplama
- teleskopik

71. Provizor qoplama deb ataladi:
- chini qoplama
- tayanch qoplama
- metallokeramik qoplama
- vaqtinchalik qoplama

72. Kaolin, kvarts, dala shpati aralashmasi kuydirilishidan hosil bo‘ladi:
- sitall
- plastmassa
- chinni
- kauchuk

73. Metallokeramik qoplama tayyorlashda qolip olinadi:
- gips yordamida
- uch qavatli
- bir qavatli
- ikkki qavatli

74. Ko‘p ildizli tishlarga o‘zakli tishlar yasashning asosiy sharti:
- o‘zaklar o‘zaro teng qalinlikka ega bo‘lishi
- o‘zaklarning o‘zaro teng uzunlikka ega bo‘lishi
- kanallarning bir xil o‘tuvchanlikka ega bo‘lishi
- kanallar o‘qining parallelligi

75. To‘la quyma o‘zakli tish qismlari o‘zaro birikkan:
- qulflar yordamida
- kavshar yordamida
- kley yordamida
- birbutun quyma

76. Qistirmali o‘zakli tishni kim taklif qilgan:
- Axmedov
- Richmond
- Logan
- Ilina-Markosyan

77. Plastmassa yuzali metall qoplamali o‘zakli tishni kim taklif qilgan:
- Belkin
- Ilina-Markosyan
- Logan
- Axmedov

78. Halqali o‘zakli tishni kim taklif qilgan:
- Logan
- Axmedov
- Kopeykin
- Richmond

79. Kanallar parallel bo‘lmaganda ko‘rsatilgan:
- Tsitrin bo‘yicha kistirma
- Logon bo‘yicha uzakli tish
- Axmedov bo‘yicha o‘zakli tish
- yig‘ma qalpoqcha-o‘zakli konstruktsiya

80. 1- darajali patologik yedirilish namoyon bo‘ladi:
- tish tojining 2/3 qismigacha
- tishtojining 1/2 qismigacha
- tish tojining 2/3qismidan milkgacha
- tish tojining 1/3qismigacha

81. Ko‘priksimon protezlar yasaladi:
- bir qatnovda

- tish qatorlarining chegaralangan katta nuqsonlarida
- tish qatorlarining bir tomonlama oxirgi nuqsonlarida
- tish qatorlarining chegaralangan kichik nuqsonlarida

82. Chaynov bosimini o‘tkazishiga ko‘ra qisman olib qo‘yiladigan plastinkali protezlar:
- fiziologik
- yarim fiziologik
- profilaktik
- nofiziologik

83. Chaynov bosimini o‘tkazishiga ko‘ra yoyli protezlar:
- nofiziologik
- fiziologik
- profilaktik
- yarim fiziologik

84. Jag‘ modellarida tishlarning ekvatorini aniqlash uslubi:
- elektroodontodiagnostika
- reoparodontografiya
- odontoparodontografiya
- parallelometriya

85. Modelning tanlangan qiyaligida har bir tishning eng bo‘rtiq qismidan o‘tgan chiziq:
- ilmoq chizig‘i
- distal chiziq
- frontal chiziq
- obzor chizig‘i

86. Ilmoqning chaynov bosimini tayanch tishga o‘tkazib berish funktsiyasi:
- aralash
- fiksatsiyalovchi
- o‘tkazuvchanlik
- tayanch

87. Ilmoqning protezni yon tomonga siljishlarining oldini olish funktsiyasi:
- fiksatsiyalovchi
- tayanch
- aralash
- stabilizatsiyalovchi

88. Ilmoqning protezni o‘rnidan siljib ketishi oldini olish funktsiyasi:
- tayanch
- stabilizatsiyalovchi

- bir tomonlama yo‘naltirilgan
- fiksatsiyalovchi

89. Qanday hollarda kiritmalardan foydalanmagan ma‘qul:
- Blek bo‘yicha 1-2- sinflarda
- tish tojining 2 ta yuzasi yemirilgan bo‘lsa
- tish toj qismiining 3dan ortik yuzasi yemirilgan bo‘lsa
- tish tojining 3 ta yuzasi yemirilgan bo‘lsa

90. Kiritma uchun tish charxlanganda osilib turgan emal prizmasi qolsa qanday asoratga olib keladi:
- tish kultyasi sinib ketishi
- kiritma sinib ketishi
- emal sinishi va ikkilamchi kariyes yuza kelishi
- pulpani kuyib ketishi

91. Kiritmalar o‘zagi uchun kerak bolgan simlarning o‘rtacha qalinligi:
- 1,8-2,5mm
- 0,1-0,4mm
- 1,0-1,5mm
- 0,8-1,0mm

92. Tish bo‘shlig‘ini plastmassa kiritmalar uchun taqsimlanish metall kiritmalar uchun taqsimlanisdan farqi:
- kovak qirg‘oqlariga falts qilinadi
- kovak devorlari burchakllari 900
- kovak qirg‘oqlarida falts qilinmaydi
- kovak devorlari burchaklari 400

93. Plastmassa kiritmaning oxirgi mexaniq ishlovi va polirovkasi qachon bajariladi:
- tishga sementlangandan so‘ng
- laboratoriyada
- tishga sementlashdan oldin klinikada
- tishga sementlashdan oldin laboratoriyada

94. Oblitsovkali kiritmalarning o‘ziga xosligi:
- o‘ta mustahkam
- tayyorlash oson
- platina qalpoqchalar yordamida qolip olinadi
- metallda retentsion joylar qilinishi

95. Kiritmani mumli kompozitsiyasi yuzasida havoli bo’shliqlar hosil bo’ladi:
- bo‘shliqni shakllantirishda falts qilinmaganda
- mum juda ham qizdirib yuborilganda

- o‘zaklar qalinligi yetarlicha emas
- bo‘shliqqa quyilgan mumni birinchi ulushi yaxshi qizdirilmaganda

96. Kiritmani yakuniy ishlov berishdagi kamchiliklar:
- kiritma yuzasining tish yuzasidan baland bo‘lishi
- kiritma yuzasining tish yuzasidan past bo‘lishi
- kiritmada tishdan osilib turuvchi qirralar bo‘lishi, bo‘shliq qirrasi va kiritma orasida sement chizig‘ining yaqqol ko‘rinib turishi
- hammasi to‘g‘ri

97. Chinni qoplama uchun charxlangan tish kultyasining burchagi
- 50
- 300
- 120
- 180

98. Qon-tomirni toraytiruvchi vosita shimdirilgan ip bilan milk retraktsiyasi usuli:
- mexaniq
- ximikofizik
- farmakomexanik
- fizik

99. Metall chini qoplamalarda qanday kuchlar metall va chini orasidagi bog‘lanishni ta‘minlaydi:
- Kalamkarov
- Panamarev
- Van der Vaals
- Ilino – Markosyan

100. To‘g‘ri burchakli zinani qanday shakldagi bor bilan hosil qilish mumkin:
- Sharsimon
- Konussimon
- Silindrik
- Shemfer

101. Milk retraktsiyasi usulini belgilang:
- Biologik
- Fizik
- Termik
- Medikamentoz

102. Bir vaqtning o‘zida asosiy va aniqlashtiruvchi massalarni kiritish yo‘li bilan qolip olish usuli:
- sendvich

- vosh yo’li
- teleskopik
- aralash

103. Ezib tayyorlanadigan qoplama uchun tishning okklyuzion yuzasidan qancha charxlanadi:
- 1-2mm
- 1,5-2mm
- 0,1mm
- 0,3mm

104. Chinni qoplama uchun uchun tishni kesuv yuzasidan qancha charxlanadi:
- 1,5-2mm
- 0,3mm
- 0,1mm
- 5-6mm

105. Patologik yedirilishning nechta darajasi bor:
- 3
- 4
- 5
- 1

106. Tish toj qismining 1/3 qismi yedirilsa patologik yedirilishning qaysi darajasiga kiradi:
- I
- II
- III
- IV

107. Tish toj qismining 1/3 - 2/3 qismi yedirilsa patologik yedirilishning qaysi darajasiga kiradi:
- II
- I
- III
- IV

108. Tish tojining 2/3dan ko‘p qismi yedirilsa patologik yedirilishning qaysi darajasiga kiradi:
- II
- III
- I
- IV

109. Patologik yedirilishda qanday qo‘shimcha tekshirish usullari qo‘llaniladi:

- elektromiografiya
- elektromiotonometriya
- EOD, rentgenografiya
- hammasi to‘g‘ri

110. Patologik yedirilishda chaynov mushaklarini palpatsiyasida nimani aniqlash mumkin:
- og‘riqni
- mushaklar shishini
- gipertonusni, sezgini assimetriyasini
- hammasi to‘g‘ri

111. Patologik yedirilishni tashxislash uchun qo‘llaniladigan qo‘shimcha tekshirish usullari:
- diagnostik modellarni o‘rganish
- tishlarni rentgenografiyasi
- hammasi to‘g‘ri
- tomografiya, elektromiografiya

112. Patologik yedirilishda diagnostik modellarda nima aniqlanandi:
- patologik yedirilish turi
- patologik yedirilish shakli
- tish qatorlarining holatii
- hammasi to‘g‘ri

113. Patologik yedirilishning qaysi darajasida oddiy ezib shtampovkalangan qoplamalar ishlatilmaydi:
- I
- I,II,III
- II, III
- to‘g‘ri javob yo‘q

114. Patologik yedirilishda okklyuzion balandlikni tiklash uchun qo‘llaniladi:
- plastmassali tish usti kappalari
- tish milk usti kappalari
- yedirilgan tishlarning chaynov yuzasini qoplovchi olib kuyiladigan plastinkali protezlar
- hammasi to‘g‘ri

115. Patologik yedirilishda vaqtinchalik davolovchi apparatlarga ko‘nikish muddati:
- 2 haftadan kam
- 1 haftadan kam
- 3 kun
- 3 haftadan ko‘p

116. Okklyuzion balandlik ko‘tarilib tiklangan bemor shifokor ko‘rigidan o‘tishi kerak:
- kamida bir haftada bir marta
- 1 oyda 1 marta
- 1 yilda 2 marta
- har 3 oyda 1 marta

117. Old tishlarda zinaning qalinligi:
- 0,9-1,1mm
- 1,0mm
- 0,5-0,8mm
- 0,16-0,20mm

118. Chaynov tishlarda zinaning qalinligi:
- 1,0 mm
- 0,16-0,20 mm
- 4-5 mm
- 2 mm

119. O‘zaklarning qalinligi bo‘lishi kerak…:
- 2,5-3,0mm
- 0,1-0,2mm
- 1-1,2mm
- 0,02-0,03mm

120. O‘zakli tishlar konstruktsiyalarini tanlashda qaysi ko‘rsatkichlarga e‘tibor beriladi:
- tishning milk ustki qismining holatiga
- bir yoki ko‘p ildizli tishligiga
- prikus turiga
- hammasi to‘g‘ri

121. Chuqur prikusda toj qismi yemirilgan tshlarga qanday konstruktsiyadagi o‘zak yasash ma‘qulroq:
- Richmond o‘zakli tishi
- ankerli o‘zak
- to‘liq quyma
- hammasi to‘g‘ri

122. Ko‘p ildizli tishlarga qanday konstruktsiyali o‘zakli tish qo‘llanmaydi:
- anker standart o‘zaklar
- to‘la quyma o‘zaklar
- Richmond bo‘yicha o‘zakli tish
- Logan o‘zakli tishlari

123. Agar toj qismi yemirilgan tishning milk usti qismi saqlanib qolgan bo‘lsa qaysi konstruktsiyali o‘zakli tish yasash ma‘qul:
- Richmond bo‘yicha
- Kopeykin bo‘yicha
- To‘lik quyma
- hammasi to‘g‘ri

124. Ko‘p ildizli tishlarning yemirilishi kelib chiqish sabablari:
- karies va uning oqibatlari
- patologik yedirilish
- o‘tkir jarohat, nokarioz kasalliklar
- hammasi to‘g‘ri

125. Ko‘p ildizli tishlarda qo‘shimcha kanal bu:
- yaxshi o‘tuvchi kanal
- yallig‘lanish bor kanal
- yaxshi o‘tmaydigan kanal
- rezektsiyalangan kanal

126. Richmond bo‘yicha o‘zakli tish xalqasi ildiz o‘zagi bilan:
- Bog’lanmaydi
- axamiyati yuk
- Bog‘lanadi
- ko‘p ildizli tishlarda bog‘lanadi

127. O‘zakning optimal qalinligi:
- ildiz diametrining 1/2ga teng
- ildiz diametrining1/4ga teng
- ildiz diametrining 1/5 ga teng
- ildiz dimetrining 1/3ga teng

128. Tish qattiq to‘qimasi patologik yemirilishi tarqalganligiga qarab tafovut etiladi:
- mahalliy, tarqalgan
- gorizontal, oval
- aralash, vertikal
- hammasi to‘g‘ri

129. Patologik yemirilishni qaysi turida prikus balandligi o‘zgaradi:
- mahalliy
- vertikal
- gorizontal
- tarqalgan

130. Patologik yemirilishni qaysi turida prikus balandligi o‘zgarmaydi:
- tarkalgan
- gorizontal
- vertikal
- mahalliy

131. Patologik yemirilishning mahalliy turida tishlar yemirilishidan tashqari nima kuzatiladi:
- prikus balandligi ko‘tarilishi
- prikus balandligi pasayishi
- ChPJB da o‘zgarish
- alveolyar o‘simta uzayishi

132. Patologik yemirilishning tarqalgan turida nima kuzatiladi:
- alveolyar o‘simta uzayishi
- prikus balandligi pasayishi
- ChPJB da uzgarish
- mushaklar atoniyasi

133. Tarqalgan patologik yemirilish bo‘lganda jag‘larning tinch holati va jipslashagandagi holatini farqi qancha bo‘ladi:
- 1-1,5mm
- 0,9-1mm
- 3-4mm
- 5-10sm

134. Yuzning pastki 1\3 qismining pasayish alomatlariga kiradi
- engak, burun-lab burmasi chuqur
- og‘iz burchagi pastga qaragan
- lunjlar osilib turishi
- hamma javob to‘g‘ri

135. Prikus balandligining pasayishi qanday asoratlarga olib kelishi mumkin:
- ko‘ruv organlar faoliyati pasayishiga
- ChPJB kasalliklariga
- mushaklar trizmiga
- mushaklar atoniyasiga

136. Patologik yemirilishni mahalliy turida ortopedik davolashni nimadan boshlash zarur:
- ftor terapiya
- miotatik refleksni to‘g‘rilash
- dezokklyuziyadan (kappalar yordamida)
- tish anatomik shaklini tiklash

137. Tarqalgan patologik yemirilishda stomatologik davo (ortiqchasini chiqaring):
- ftorlak terapiya
- prikus balandligini kutarish
- ChPJB ni normal holatga keltirish
- dezokklyuziyadan (kappalar yordamida)

138. Patologik yemirilishni og‘ir darajasida qanday qoplamalar bilan davolash mumkin emas:
- shtampovkali
- metall keramik
- quyma metall
- teleskopik

139. Okklyuzion balandlik 1-1,5 sm ga pasayganda ortopedik davoni boshlash kerak (ortiqchasini chiqaring):
- bosqichma-bosqich balandlikni ko‘tarish
- miotatik refleksni to‘g‘rilash
- ChPJBni normaga keltirish
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri tish anatomik shaklini tiklash

140. Jag‘larning okklyuzion balandligi pasayganda ChPJB ning bo‘g‘im boshchasi holati:
- vertikal va tepaga
- yonga va pastga
- orqaga va pastga siljigan
- orqaga va sagital

141. Sindrom Kostena qanday belgilar va simptomlar bilan kechadi (ortiqchasini chiqaring):
- quloq shang‘illashi
- og‘iz shilliq qavatining paresteziyasi
- glossalgiya
- burundan qon ketishi

142. Sindrom Kostena nima sababdan kelib chiqadi:
- yuzning pastki 1\3 qismining keskin pasayishi
- yuzning pastki 1\3 qismining yallig‘lanishidan
- sababi noaniq
- onkologik kasalliklar

143. Patologik yemirilishni eng og‘ir bosqichlarida qanday konstruktsiyali protezlar ma‘qul:
- metall keramika
- quyma metall

- metall plastmassa
- shtiftlar bilan tiklash

144. Fiziologik yemirilishni patologik yemirilishdan farqi:
- jag‘larning okklyuzion balandligi keskin pasayadi
- jag‘larning okklyuzion balandligi oshadi
- jag‘larning okklyuzion balandligi o‘zgarmaydi
- jag‘larning deformatsiyasi kuzatiladi

145. Patologik yemirilishni etiologiyasi:
- ekzogen faktor
- endogen faktor
- noaniq
- somatik kasallik

146. Ko‘priksimon va konsol protezlar berilayotgan kuchni qanday tarqatadi:
- parodont orqali
- qo‘shni tishlar orqali
- parodont orqali, qo‘shni tishlar orqali
- atrof yon to‘qimalari orqali

147. Hamma antogonist tishlari bor bo‘lgan jag‘da ikkilamchi qisman adentiyada markaziy okklyuziya holati qanday o‘lchanadi:
- bemordan tishlarni jipslashgan holatida yopish tavsiya etiladi
- bemorga yutinish tavisya etiladi va dahandan bosib pastki jag‘ni to‘g‘ri holatga keltiriladi
- modelda markaziy okklyuziyani antogonist tishlar yordamida to‘g‘ri joylashtiriladi
- hamma javob to‘g‘ri

148. Kennedi bo‘yicha tish qatorlar nuqsoni necha guruhga bo‘linadi:
- 4
- 3
- 2
- 5

149. Gavrilov bo‘yicha tish qatorlari nuqsoni necha guruhga bo‘linadi:
- 4
- 3
- 2
- 5

150. Olib quyiladigan ko‘priksimon protez qanday qismlardan iborat:
- tayanch qismidan
- tayanch qismidan, oraliq qismidan
- tana qismidan

- klammerlardan

151. Olib qo‘yiladigan plastinkasimon protezning asosiy qismlari tarkibi … iborat
- hamma javob to‘g‘ri
- klammerlardan
- asos
- suny tishlardan

152. Qaysi davrdan boshlab tish anomaliyalari o‘rganila boshlangan:
- Popov davridan
- Abrikosov davridan
- Shif davridan
- Arestotel davridan

153. Amaliyotda parallelometrning vertikal diagnostik o‘qiga nisbatan modelning nechta joylashuv holati ahamiyatga ega:
- 5
- 4
- 3
- 2

154. Modelning joylashuvining qaysi holatida «nolinchi qiyalik» bo‘ladi:
- gorizontal joylashuv
- vertikal joylashuv
- transverzal
- vertikal+ transvirzal

155. Modelning parallelmetrda joylashuv holatlarini aniqlang:
- gorizontal
- orqa
- oldi
- hammasi to‘g‘ri

156. Tish yuzasidan nechta «obzor chizig‘i» ning o‘tishi farqlanadi:
- 5
- 4
- 3
- 2

157. Parallelometrning diagnostik metallik o‘qini yana nima deb yuritiladi:
- grifel
- mufin
- tsirkul
- oddiy o‘q

158. Protezning og‘izga tayanch tishlar borligida kiritishda, tayanch tishlarning paralelligini aniqlashda qaysi asbobdan foydalangan bo‘lardingiz:
- profilogramma
- reograf
- parallelometr
- mastikatsiograf

159. Qanday paytda tish qatorining o‘rta nuqsoni deb aytiladi:
- 4-9 tish yo‘qligida
- 1-3 tish yo‘qligida
- 10-13 tish yo‘qligida
- barcha tishlar yo‘qligida

160. Ko‘priksimon protezning qismlarini aniqlang:
- ildiz
- tayanch, oraliq qismi
- do‘mboqcha
- tayanch

161. Ko‘priksimn protezning tayanch qismini baholashda qanday usuldan foydalangan bo‘lardingiz:
- dental rentgenorafiya
- perkussiya
- palpatsiya
- panoram rentgen

162. Kim birinchi kavsharsiz usulni qo‘llashni taklif qilgan:
- Barovskiy
- Kurlyandskiy
- Vasilev
- Gavrilov

163. Kavsharda qanday aktiv metallar mavjud:
- mis, tsink, marganets
- mis
- tsink, marganets
- oltin

164. Nima uchun 1234 tishlarga ko‘priksimon protezlar ko‘llanilmaydi:
- chunki 123 tishga vertikal, 4 ham vertikal, ham gorizontal bosim tushadi
- estetik jihatdan
- qo‘yish juda qiyin
- quysa bo‘laveradi

165. Ko‘priksimon protezning oraliq qismi alveolyar o‘simta shilliq pardasiga nisbatan joylashishiga ko‘ra qanday bo‘ladi:
- osma, tegib turadigan, egarsimon
- osma
- tegib turadigan
- egarsimon

166. Ko‘priksimon protezning oraliq qismi qaysi tishlar sohasida milkka tegib turadigan qilib bo‘lishlanadi:
- yon tishlar
- chaynov tishlar
- hamma tishlar
- old tishlar sohasiga

167. Bir tayanch tishga ega bo‘lgan tish protezi nima deb nomlanadi:
- konsol protez
- ko‘priksimon shtampovkali protez
- yoyli
- plstinkali yoyli

168. Ko‘priksimon protez tayanch tishini charxlashda o‘ziga xos tomoni nimadan iborat:
- tayanch tishlar paralell qilib charhlanadi
- perpendekulyar qilib charxlash
- paralellik va perpendekulyar charxlash
- hammasi to‘g‘ri

169. Fasetkali ko‘priksimon protez qo‘yilayotganda avvalo nimaga e‘tibor berish kerak:
- tish koronkasining balandligiga
- ildiz uzunligi
- koronka qalinligi
- okklyuzion yuzaga

170. Hozirgi kunda ko‘priksimon protezning oraliq qismini tayyorlashda qaysi usuldan foydalaniladi:
- standart oraliq kismdan foydalaniladi
- plastinkali stens bilan tayyorlash
- mumdan shakllantirib tayyorlash
- hammasi to‘g‘ri

171. Byugel so‘zi qanday ma‘noni anglatadi:
- tana
- klammer
- yoy

- tish

172. Yoyli protez qanday qismlardan iborat:
- tayanch klammerlardan
- qulf-kalit sistemasidan
- asos va sunʻiy tishlardan
- hammasi toʻgʻri

173. "Sitallar"-bu:
- polikristalik shisha
- polimer
- qolip oluvchi materiallar
- Chinnimassalarni asosiy komponentlari

174. Toʻla quyma koʻpriksimon protez oraliq qismi tayanch qismlari bilan oʻzaro bogʻlanadi:
- kavsharlash yoʻli bilan
- svarka yordamida
- qulf –kalit yordamida
- quyish vaqtida

175. Koʻpriksimon protezlar bilan protezlashning birinchi klinik etapi hisoblanadi:
- tayanch tishlarni charxlab ikkala jagʻdan qolip olish
- anesteziya
- ikkla jagʻdan qoliplar olish
- markaziy okklyuziya holatini aniqlash

176. Klammer chizigʻi bu:
- tayanch tishlarni oʻzaro bogʻlovchi chiziq
- oraliq chiziq
- protez markazidan tayanch tishlarga yoʻnalgan chiziq
- tishni tayanch va ushlab turuvchi qismlarga boʻluvchi chiziq

177. Yuqori duga qalinligi (mm da):
- 0,5
- 1,3
- 1,4
- 1,5

178. Oʻtga chidamli model boʻlishi kerak:
- qizdirilganda optimal kengaytirish koeffitsientiga ega
- qattiq
- toʻgʻri
- silliq

179. Normada tish milk choʻntagi chuqurligi nechiga teng:
- 1-2 sm
- 20-26 mk
- 1-1,5 mm
- 3-4 mm

180. Ilmoqning dumi va yelkasini bogʻlovchi qismi:
- dum
- elka
- tana
- fiksator

181. Ilmoqning protez asosida yotadigan qismi:
- elka
- tana
- prujina
- dum

182. Qattik tanglay bufer zonalari A chizigʻi yoʻnalishi boʻyicha qanday oʻzgaradi:
- kamayib boradi
- oʻzgarmaydi
- oshib boradi
- chap tomon oʻng tomonga nisbatan kamayib boradi

183. Qattiq tanglay qaysi sohasi bufer xususiyati ega emas:
- ortki 1/3 qismi shilliq qavati
- alveolyar oʻsimta sohasi
- sagittal chok boʻylab qoplovchi shilliq qavat
- qattik tanglayning koʻndalang boʻrmalari sohasidagi shilliq qavat

184. Birinchi sinf Suple boʻyicha tabiiy burmalar alveolyar oʻsiq balandligidan qanday masofada joylashadi:
- alveolyar oʻsiqdan uzoqda
- alveolyar oʻsiqqa 0,5 mm yetmaydi
- alveolyar oʻsiq yaqinida
- alveolyar oʻsiq ustida

185. Alveolyar oʻsiqni qoplovchi milk:
- kapilyarlarga va qon tomirlarga boy
- shoxlanadi
- himoyasi past
- shoxlanmaydi

186. Quloq oldi so‘lak bezi chiqaruv nayi ochiladi:
- pastki 4 tishlar sohasiga
- retromolyar sohaga
- pastki 6 tishlar sohasiga
- yuqori 6 tishlar sohasida

187. Pastki jag‘ kompakt moddasi eng qalin joylashgan sohasi:
- burchagi
- tanasi
- engak sohasi
- bo‘g‘im boshchasi

188. Peshona burun kontraforsi orqali kaysi tishlarga tushgan bosim tarqaladi:
- premolyar tishlarga
- molyar tishlarga
- qoziq tishlarga
- frontal va premolyar tishlarga

189. Yonoq suyagi tanasida bosim nechta yo‘nalishda tarqaladi:
- 4ta
- 5ta
- 2ta
- 3 ta

190. Qanot tanglay kontraforsi qanday hosil bo‘ladi:
- yuqori jag‘ tanglay o‘sig‘idan
- yonoq alveolyar o‘sig‘idan
- burun bo‘shlig‘i yon devoridan
- yuqorigi jag‘ do‘mbog‘i hamda qanotsimon o‘siqdan

191. Jag‘lar g‘ovak moddasi qanday joylashadi:
- to‘g‘ri turtburchak shaklida
- xaotik, noaniq tartibda
- doirasimon
- uchburchaksimon

192. Tanglay choklaridan tanglay oldingi sohasi tomon nechta va qanday burmalar yo‘nalgan bo‘ladi:
- bo‘ylama burmalar,8-10ta
- ko‘ndalang burmalar 6-12ta
- uzunasiga yo‘nalgan burmalar 12-18ta
- ko‘ndalang burmalar, 3-6ta

193. Jag‘larning yoshga bog‘liq holda o‘zgarishlari to‘g‘risida qaysi olimlar ko‘proq ishlar olib borganlar:

- Busigin
- Trezubov
- Doynikov
- hamma javob to‘g‘ri

194. Yuzning qaysi qismi hayot davomida nisbatan o‘zgarmas:
- yuqori
- pastki
- yuqori va pastki
- o‘rta

195. Yuqori jag‘ balandligi tishlar bilan birgalikda nechiga teng:
- 10-20 mm
- 40-50 mm
- 20-30 mm
- 60-70 mm

196. Yuz suyagini qismlarga ajratishda nechta gorizontallardan foydalanamiz:
- 3 ta
- 2 ta
- 5 ta
- 4 ta

197. Anatomik koronka bu:
- tishning butun toj qismi
- klinik koronkaning bir qismi
- emal bilan qoplangan tish qismi
- hammasi to‘g‘ri

198. Ortognatik prikusda yuqoridagi tish yoyi pastki Tish yoyidan:
- katta
- teng
- hammada individual
- kichik

199. Pon bo‘yicha yuqorigi jag‘ tish qatorining o’lchaydigan nuqtalari qaysi tishlarda joylashgan:
- birinchi premolyarning o’rta bo’ylama fissurasida
- markaziy kesuvchi
- birinchi premolyarning o’rta bo’ylama fissurasida, birinchi molyar
- ikkinchi molyar

200. Tishlar yo‘q bo‘lgan kishilarda bo‘g‘im chuqurchasi ... bo‘lib qoladi:
- chuqur
- qalin

- yupqa
- yuza

201. Chuqur prikusda bo‘g‘im do‘mbog‘i formasi qanday shaklda:
- o‘rta do‘mboqlikda
- yassi
- o‘zgarishsiz
- chuqur do‘mboqlikda

202. To‘g‘ri prikusda bo‘g‘im do‘mbog‘i qanday shaklga ega:
- do‘ng
- chuqur
- yassi
- juda chuqur

203. Og‘iz normada qancha ochiladi:
- 10-20mm
- 40sm
- 4-5sm
- 50sm

204. Pastki jag‘ o‘rtacha oldga qanchaga siljiy oladi:
- 2sm
- 4sm
- 5sm
- 0,5-1,5sm

205. Gizi bo‘yicha sagittal bo‘g‘im yo‘li burchagi:
- 33
- 24
- 80
- 45

206. Pulpa qon tomirlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash mumkin:
- reograf yordamida
- EOD yordamida
- EKG yordamida
- termometr yordamida

207. Tishning patologik qimirlashi qaysi kasallikning simptomi hisoblanadi:
- o‘tkir pulpit
- o‘tkir karies
- o‘tkir jarohat
- chuqur karies

208. Qoshiq devori va tishlar orasida necha mm li oraliq bo‘lishi kerak:
- 3-5mm
- 7-8mm
- 8-10mm
- 11-12mm

209. Gipsni qotishini tezlashtirish maqsadida necha %li tuz eritmasi ishlatiladi:
- 3-4
- 6-8
- 8-10
- 10-12

210. Alginatli xom ashyolarga kiradi:
- ipin
- elastik
- ortoprint
- hammasi to‘g‘ri

211. Silikonli qolip oluvchi xom ashyolarga kiradi:
- Ipin
- Gips
- Spideks
- Deguprint

212. Protez maydonida joylashgan qattiq va yumshoq to‘qimalarning aniq shakli nima deyiladi:
- qolip
- protez maydoni
- tishlov bosimi
- jag‘ning modeli

213. Protez maydonida joylashgan qattiq va yumshoq to‘qimalarning aks tasviri:
- qolip
- model
- protez maydoni
- tishlov bosimi

214. Protez bilan bevosita aloqador bo‘ladigan organ va to‘qimalar ataladi:
- model
- qolip
- tishlov
- protez maydoni

215. Qotishmalar fizik kimyoviy talablardan kelib chiqqan holda necha turga bo‘linadi:
- 4 ta turga, qattik eritmalar, mexanik aralashma, kimyoviy birikma va yuqori strukturalar
- 3 ta turga, qattiq eritma, mexaniq aralshma, kimyoviy birikma
- 2 ta turga, qattiq aralashma va kimyoviy birikma
- hammma javob to‘g‘ri

216. 750 probali oltin qotishmaning tarkibi qanday:
- 90% oltin, 4% kumush, 6% rux
- 75% oltin,, 8%kumush, 7,8 rux
- 75% oltin, 8% kumush,7,8% rux, 9% platina
- 75% oltin, 4% kumush, 6% rux

217. Qanday qotishmalar, konstruktsiyalarni yuqori darajada aniq quyish imkoniyatini berib, yaxshi mexaniq xususiyatga ega, shtampovkaga berilmaydi:
- alyuminiy asosidagi qotishmalar
- temir qotishmalari
- kumush va palladiy asosidagi qotishmalar
- kobalt xrom nikel qotishmalar

218. Temir qotishmalariga qanday moddalarni qo’shish bilan kislota va agressiv moddalarga nisbatan korroziyaga qarshi xususiyat beriladi:
- xrom
- xrom, kobalt
- temir karbiti
- nikel, xrom, kobalt

219. Ushbu qotishmalar ko‘rinishi jihatidan kumushga o‘xshaydi, lekin unga qaraganda korroziyaga chidamli u 40-70%mis, 4-40% Rux, 10-20% nikeldan tuzilgan, gap qaysi qotishma to‘g‘risida ketmokda:
- Latun
- Bronza
- titan qotishmalar
- Melxior

220. Naklep deganda nimani tushunasiz:
- bu polikristallning shakli
- cho‘zilish, siqilish, egilish, bukilish, qattiqlik
- qattiq jismlarning tashqi muxit bilan o‘zaro bog‘lanishi
- metallning plastik deformatsiya ta‘siridagi mustaxkamlanishi

221. Quyidagi ta‘rif nimaga xos: Turli materiallarni ularga zarur xossalarning berilishi yoki qo‘shimchalarni yo‘qotish uchun qizdirish va yuqori haroratda tutib turish:
- qizdirish
- kuydirib chiqish
- chiniqtirish
- metallning kuyib borishi

222. Hajm va massa bo‘yicha polimer va monomer nisbati qanday:
- 2:1 va 3:1
- 1:3va 1:2
- 3:1 va 2:1
- 4:1 va 2:1

223. Farfor xom ashyolarning komponentlarini sanang:
- dala shpati
- kvarts, kaolin
- bo‘yoqlar
- hammasi to‘g‘ri

224. Kaolin quyidagiga ta‘sir qiladi:
- farforning termik turgunligiga
- plastikligiga
- chinnining mexaniq mustahkamligiga
- shaffofligiga

225. Chinni massasida qanchalik dala shpati ko‘p bo‘lsa …:
- farforli massa shaffov bo‘ladi
- farforli massa kam shaffov bo‘ladi
- farfor massasini bo‘yaydi
- massa mustahkam bo‘ladi

226. Kvarts farforlik qotishmaga nima beradi:
- qattiqlik, mustahkamlik
- ximik turg‘unlik, mo‘rtlikni kamaytiradi
- kirishishni kamaytiradi
- hammasi to‘g‘ri

227. Qiyin eruvchi farfor nima uchun ishlatiladi:
- fabrikada tayyorlanadigan standart sun‘iy tishlar uchun
- qoplama
- kiritma
- ko‘priksimon protez

228. Stomatologik farforning assosiy xususiyatlarini belgilang:

- fizik, optik
- optik
- mustahkamlik
- hammasi to‘g‘ri

229. Shakl beruvchi xom ashyolar quydagi talablarga javob berishlari shart:
- qotish vaqti 7-10min
- quyilgan materialga(quyma) yopishmasligi kerak
- hammasi to‘g‘ri
- govaksimon yuzani hosil qilish, quyilgan materialni yuzasi sillik bo‘lishini ta‘minlash

230. Shlifovka va yaltiratish uchun ishlatiladigan materiallar qanday nomlanadi:
- Abraziv
- Shlifovkalovchi
- Yaltratuvchi
- Oqartiruvchi

231. Nima hisobiga metall ustida zanglangan sath yuzaga keladi:
- metallni havodagi vodorod bilan o‘zaro bug‘lanishidan
- ximik ishlov bergandan
- metallini havodagi kislorod bilan o‘zaro aloqasidan
- flyus bilan ishlov berganda

232. Metall yuzasidagi zang sathni qanday yo‘qotish mumkin:
- termik ishlov berib
- biologik yo‘l bilan
- ximik yo‘l bilan
- elektr tok yordami bilan

233. Ushbu vazifa kimni bo‘yniga yuklatilgan: tish protez laboratoriyasida ishni yaxshi tshkil qilish, yasaladigan protezlarning sifatini yaxshilashda tish texniklariga yordam berish:
- bo‘lim mudiri
- tish texnigi
- klinika mudiri
- katta tish texnigi

234. Inson ish vaqtini qonun qoidlarini, mashinalarga, ish joyiga, ish muhitiga bo‘lgan munosabatini o‘rganadigan ta‘limot qanday nomlanadi:
- Erganomika
- Deontologiya
- Dietologiya
- Etika

235. Stomatologiyada erganomikaning asosiy vazifalarini belgilang:
- ishning qiyinchiliklarini vrach va o‘rta tibbiy xodim uchun kamaytirish
- personalning ish vaqtini produktiv kamaytirib, bo‘sh vaqtni uzaytirish
- bemorlar vaqtini kam sarflash, bo‘sh vaqtlarni personalning malakasini oshirishga qaratish
- hammasi to‘g‘ri

236. Bo‘lim mudirining vazifalarini belgilang:
- ishlab chiqarish rejalarini bajarish
- hujjatlarni o‘z vaktida va to‘g‘ri to‘ldirishni talab qilish
- yuqori malakali mutaxassislarning konsultatsiyalarini tashkil qilish, bo‘limdagi ishlarni to‘g‘ri tashkil qilish
- hammasi to‘g‘ri

237. Sifatsiz ishlangan protezga ketgan xom ashyoga javobgar shaxs:
- katta tish texnigi
- bo‘lim mudiri
- tish texnigi
- vrach stomatolog

238. Tishlarning rivojlanish davrida yuzaga keladigan tish qattiq to‘qimasi patologiyasini belgilang:
- flyuoroz
- ponasimon nuqson
- tish qattiq to‘qimasi nekrozi
- gipoplaziya

239. Yuqori jag‘ molyar tishlarda okklyuzion yuza chaynov yuzaning necha % ni tashkil qiladi:
- 60-70
- 10-20
- 20-30
- 40-50

240. 321 va 123 tishlar mahalliy patoogik yemirilishga uchragan. Ortopedik nuqtai nazardan sizning taktikangiz (ortiqchasini chiqaring):
- dezokklyuziya qilish
- metall keramik qoplamalar
- shtiftlar bilan tish anatomik shaklini tiklash
- fasetkali tish yasash

241. Protezning fiksatsiyasi deganda nimani tushunasiz:
- protezni jag‘larning tinch holatida og‘iz bo‘shlig‘ida ushlanib turishi
- protezni jag‘lar funktsiyasi jarayonida ushlanib turishi

- protezni gaplashganda og‘iz bo‘shlig‘ida ushlanib turishi
- protezni ovqat chaynaganda ushlanib turishi

242. Protez stabilizatsiyasi bu:
- jag‘lar statik holatida protezni ushlanib turishi
- jag‘larni markaziy okklyuziya holatidan protezni yonga siljishi
- jag‘larni funktsional holatlarida protezni og‘iz bo‘shlig‘ida ushlanib turishi
- yon okklyuziya holatdan oldga siljishi

243. Klammer tishni aylanasini qancha qismini egallashi kerak:
- 2\3
- 1\4
- 2\4
- 1\2

244. Shakli bo‘yicha klammerlar bo‘ladi:
- oval, kvadrat
- uchburchak, beshburchak
- aylana, oval
- aylana, yarim aylana, lentasimon

245. Qaysi turdagi klammerlarni biz faqat qoplamali tishlarga qo’llay olamiz:
- lentasimon
- aylana
- yarim aylana
- uchburchak

246. Bir yelkali klammerning qismlari (ortiqchasini chiqaring):
- elkasi
- tanasi
- oyoqlari keng
- o‘simtasi

247. Klammerning yelkasi va o‘simtasini biriktirib turuvchi qism:
- yelkasi
- o‘simtasi
- tanasi
- oyoqlari

248. Protez bazisi ichida turuvchi klammer qismi bu:
- o‘simtasi
- elkasi
- qo‘llari
- tanasi

249. Tishni lunj tomonidan klammerni qaysi qismi qoplab turadi:
- tanasi
- oyoqlari
- yelkasi
- qullari

250. Yuqori jag‘dagi tishlarda klammer yelkasi ekvatordan … turadi:
- yuqorida
- pastda
- tegmaydi
- milk ustida

251. Pastki jag‘dagi tishlarda klammer yelkasi ekvatordan … turadi:
- yuqorida
- tegmaydi
- pastda
- milk ustida

252. Protezni mumli konstruktsiyasini kyuvetaga gipslashni qanday usullari bor (ortiqchasini chiqaring):
- to‘g‘ri
- teskari
- kombinirlangan
- yonbosh

253. Protezga adaptatsiya bosqichlari nechta:
- 3 ta
- 4 ta
- 5 ta
- 10 ta

254. Qo‘zg‘alish fazasi kuzatiladi:
- protezni topshirgach 5-10 kundan so‘ng
- 1 oydan so‘ng
- 41 soatdan so‘ng
- protezni bemor taqa boshlagan kundan

255. Qisman tormozlanish fazasi:
- protezni topshirgach 1-5 kungacha
- protez topshirgach 5-10 kundan so‘ng
- 1 oydan so‘ng
- 41 soatdan so‘ng

256. To‘liq tormozlanish fazasi:
- protez topshirgach 5-10 kundan so‘ng

- 1 oydan so‘ng
- protez topshirgach 5-33 kungacha
- 41 soatdan so‘ng

257. Quyidagi belgilar adaptatsiyani qaysi bosqichida bo‘ladi: -salivatsiya kuchayishi, qusish refleksi paydo bo‘lishi, diktsiyani o‘zgarishi:
- 1faza - qo‘zg‘alish
- qisman tormozlanish - 2 fazada
- 3faza -to‘liq tormozlanish
- hamma javob to‘g‘ri

258. Qisman olib qo‘yiladigan plastinkali protezni salbiy tomonlari (ortiqchasini chiqaring):
- og‘iz shilliq qavatini atrofiyasiga olib keladi
- klammerlar tishni yedirilishiga olib keladi
- gigiyenik emas
- protezni tishga tegib turuvchi chetlari uni karies, gingivitga olib keladi

259. Protezni perebazirovka qilishda protezdan qancha qalinlikda plastmassa olib tashlanadi:
- 2-3mm
- 0,1-0,2mm
- 0,001-0,05mm
- 3-4mm

260. Perebazirovka uchun qanday massalarda qolip olamiz:
- termoplastik
- gips
- elastik, polimerizatsiyalanuvchi
- 2 qavatli

261. Lyund qattiq tanglayni qanday zonalarga ajratgan (ortiqchasini chiqaring):
- old, o‘rta, orqa
- sagital chok sohasi
- alvellyar o‘siq
- ko‘ndalang bo‘rmalar sohasi

262. Tishsiz alveolyar qism quyidagi yo‘l bilan tekshiriladi:
- palpatsiya
- ko‘rik
- diagnostik modelni tekshirish
- zondlash

263. Lyund qattik tanglayni qaysi sohasini o‘rta fibroz zona deb belgiladi:

- alveolyar o‘siqni
- sagittal chok sohasini
- ko‘ndalang burma sohasi
- orqa 1/3 qismini

264. Supple bo‘yicha nechanchi sinf protez uchun qulay tayanch hisoblanadi:
- 1
- 2
- 3
- 4

265. Kennedi tasnifini 1 chi sinfini belgilang:
- 1 tomonlama distal chegaralanmagan nuqson
- 1 tomonlama distal chegaralangan nuqson
- old tishlar yo‘qligiga
- 2 tomonlama distal chegaralangan nuqson

266. Bir tomonlama distal chegaralanmagan nuqson Kennedi tasnifini nechanchi sinfiga kiradi:
- 2
- 1
- 3
- 4

267. 1 tomonlama distal chegaralangan nuqson, tish qatorlari nuqsonini Kennedi tasnifi bo‘yicha nechanchi sinfga kiradi:
- 4
- 1
- 2
- 3

268. Old tishlar yo‘qligi Kennedi tasnifini nechanchi sinfiga kiradi:
- 4
- 1
- 2
- 3

269. Olinadigan to‘liq plastinkali protezlarni ushlab turadigan asosiy omillarni sanab bering:
- anatomik retentsiya
- alveolyar o‘siqning atrofiya darajasi
- funktsional so‘rilish va adgeziya
- mexaniq moslamalar

270. To‘liq olib qo‘yiladigan plastinkali protezlarni chaynov protsessi paytida ushlab turadigan asosiy omillar:
- protez asosining fiksatsiyasi va sun‘iy tish qatorlarini to‘g‘ri terish
- al‘veolyar o‘siqning shakli
- shilliq osti qavatining qalinligi
- tanglay gumbazining chuqurligi

271. Tish qatoridagi qisman nuqsonlar o‘rnini to‘ldirish uchun ishlatiladigan protezlarga kiradi:
- konsol, ko‘priksimon, yoysimon, qisman plastinkali
- to‘lik plastinkali
- konsol
- olinadigan qisman plastinkali

272. Olinadigan qisman plastinkali protezning tarkibiy elementlariga kiradi:
- yoy, sun‘iy tishlar
- qiya tekislik bilan plastinka
- asos, sun‘iy tishlar, ilmoqlar
- yoy, asos va ilmoqlar

273. Olinadigan qisman plastinkali protezlar chaynov bosimini qayerga tarqatadi:
